

## Araştırma Makalesi / Research Paper

# Bakir Cho'ponzodaning Turk Tillaridagi Singarmonizmni Chiqarish Haqidagi Fikrlari va Ularning Inkori Etilishi Haqida

Jo'ra XUDOYBERDIYEV\*

### Abstrakt

Rossiya istilosidan keyin turk xalqlari dastlab chor hukumati, keyin bolshheviklar va sovet tuzumi tomonidan turli tazyiqlarga uchradi. Ushbu tillarning fonetikasi, alifbosi, imlosi, lug'at boyligi va atamalarini rus tiliga yaqinlashtirish maqsadida bosqichma-bosqich o'zgartirish bo'yicha keng ko'lamli tizimli ishlar olib borildi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda ushbu tillarning umumiy xususiyatlariga e'tibor bermagani holda, ularni bir-biridan ajratib turadigan turli sohalarni tahlil qilishga, ularni bo'rttirib ko'rsatishga katta e'tibor qaratildi. 1926-yil 26-fevralning 5-martigacha Bokuda bo'lib o'tgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida turk tillarining adabiy tili, alifbosi, imlosi va terminologiyasi kabi mavzular muhokama qilindi. 1927-yil 3-7-iyun kunlari Bokuda Yangi Turk alifbosi Markaziy Qo'mitasining birinchi plenumi bo'lib o'tdi. Unda turk alifbolarini birlashtirish masalasi muhokama qilindi. Mazkur tadbirlarda qizg'in muhokama qilingan masalalar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarildi. Bugungi kunda ushbu tadqiqotlarni, ayniqsa, sobiq SSSR hududida olib borilgan ishlarni qaytadan tahlil qilish, baholash va xolis xulosalar chiqarishga ehtiyoj katta. Bundan tashqari, turk tillarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi va qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan ayrim muhim masalalar tahlil qilinmagan. Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida ham, Yangi turk alifbosi Markaziy qo'mitasining birinchi plenumida ham turk tillaridagi singarmonizm hodisasini bartaraf etish, unli tovushlarni

**Geliş Tarihi/Date Applied:** 17.02.2025

**Kabul Tarihi/Date Accepted:** 06.12.2025

**Makalenin Künyesi:** Xudoyberdiyev, J. (2026). Bakir Cho'Ponzodaning Turk tillaridagi singarmonizmni chiqarish haqidagi fikrlari va ularning inkori etilishi haqida. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 61, 1-26. <https://doi.org/10.24155/tdk.2026.264>

Dr., Alisher Navoi' Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Özbekistan, [jsxudayberdi@mail.ru](mailto:jsxudayberdi@mail.ru), <https://orcid.org/0000-0002-5362-0356>

bildiradigan harflar sonini kamaytirish takliflari ilgari surilgan. Bu takliflar anjumanlarda ishtirok etgan turk xalqlari vakillari tomonidan rad etilgan. 1934-yildan so'ng o'zbek adabiy tilidan singarmonizm qonunini chiqarildi va alifbodagi unli tovushlarni ifodalovchi 9 ta harfdan 3 tasi qisqartirilib 6 taga tushirildi. Maqolada rus turkologlari tomonidan ilgari surilgan turk tillaridagi singarmonizm qonunini chiqarish va turk tillari alifbolaridagi unli tovushlarni ifodalovchi harflar sonini kamaytirish masalasi birinchi marta ko'rib chiqiladi.

*Kalit So'zlar:* Birinchi Turkologiya Qurultoyi, Yangi Turk Alifbosi Markaziy Qo'mitasining 1. Plenumi, singarmonizm, unlilar, Bekir Cho'ponzoda

## **Bekir Sıtkı Çobanzade'nin Türk Dillerindeki Ünlü Uyumunu Kabul Etmediğine Dair Görüşleri ve Bunların Reddedilmesi Üzerine**

### **Öz**

Rusya'nın istilasından sonra Türk halkları önce Çarlık yönetimi, ardından Bolşevikler ve Sovyet rejimi tarafından çeşitli baskılara maruz kaldılar. Bu lehçelerin fonetiğini, alfabesini, yazımını, kelime hazinesini ve terimlerini Rusçaya yaklaştırmak amacıyla aşamalı ve sistemli değişiklikler yapıldı. Gerçekleştirilen araştırmalarda, bu lehçelerin ortak özelliklerine dikkat edilmeksizin onları birbirinden ayıran çeşitli yönlerin abartılı bir şekilde incelenmesine büyük önem verildi. 26 Şubat – 5 Mart 1926 tarihleri arasında Bakü'de toplanan Birinci Tüm Birlik Türkoloji Kurultayı'nda Türk lehçelerinin edebî dili, alfabesi, yazımı, terminolojisi ve tarihi gibi konular tartışıldı. Haziran 1927 tarihlerinde ise yine Bakü'de Yeni Türk Alfabeti Merkez Komitesinin birinci genel kurulu yapıldı ve burada Türk alfabelerinin birleştirilmesi meselesi görüşüldü. Bu toplantılarda hararetle tartışmalara neden olan meseleler birçok bilim insanı tarafından araştırılmış ve çeşitli sonuçlara ulaşılmıştır. Günümüzde özellikle eski SSCB sınırları içinde yürütülen bu toplantılar, bir gereklilik arz etmektedir. Ayrıca Türk lehçelerinin özgün özelliklerini belirleyen ve yoğun tartışmalara neden olabilecek bazı önemli konular da henüz yeterince analiz edilmemiştir. Hem Birinci Tüm Birlik Türkoloji Kurultayı'nda hem de Yeni Türk Alfabeti Merkez Komitesinin birinci genel kurulunda Türk lehçelerindeki ünlü uyumu olgusunun edebî dillerden çıkarılması ve ünlü sesleri temsil eden harf sayısının azaltılması yönünde teklifler sunulmuştur. Ancak bu öneriler, toplantılara katılan Türk halklarının temsilcileri tarafından reddedilmiştir. 1934 yılından sonra Özbek edebî dilinden ünlü uyumu kuralı çıkarılmış ve alfabede ünlü sesleri ifade eden 9 harften 3'ü azaltılarak sayı 6'ya indirilmiştir. Bu makalede, Rus Türkologlar tarafından öne sürülen Türk lehçelerindeki kuralının kaldırılması ve alfabelerdeki ünlü harf sayısının azaltılması meselesi ilk kez bilimsel olarak ele alınmaktadır.

*Anahtar Kelimeler:* Birinci Turkoloji Kongresi, Yeni Türk Alfabeti Merkez Komitesinin 1. Genel Kurulu, ünlüler, Bekir Sıtkı Çobanzade

### Abstract

Following Russian colonization, Turkic peoples were subjected to political and linguistic pressure first by the Tsarist regime, Bolsheviks then by Soviet authorities. Systematic efforts were made to Russify their phonetics, alphabets, orthographies, lexicons, and terminology. The reforms emphasized linguistic differences among Turkic languages rather than their common features. The First All-Union Congress of Turkology (Baku, 1926) and the First Plenary Session of the Central Committee for the New Turkic Alphabet (Baku, 1927) addressed issues such as literary language standards, alphabet reform, terminology, and linguistic history. One of the most controversial proposals was the removal of vowel harmony from literary Turkic languages and the reduction of vowel letters in their alphabets. These proposals were strongly opposed by representatives of the Turkic communities, including leading scholars such as Bekir Chobanzade. Despite resistance, Soviet policy led to the elimination of vowel harmony from the Uzbek literary language in 1934, reducing vowel letters from nine to six. This move, aimed at suppressing a core phonological feature of Turkic languages, reflected broader ideological efforts to erode linguistic unity. This article revisits these historical events and underscores the need for a critical reassessment of Soviet-era linguistic reforms and their long-term impact on Turkic identity.

*Keywords:* First Turkology Congress, First Plenary Session of the Central Committee of the New Turkic Alphabet, vowel letters, Bekir Chobanzade

XX yuzyillik boshlarida turk tillarining adabiy tillari me'yorlari, imlo-si, alifbosi, atamalari kabi muhim masalalar matbuotda, turli anjumanlarda qizg'in muhokama qilingan. Bu davr manbalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan, o'rganilgan. Biroq u ishlarning ayrimlarida sovet mafkurasi tamoyillaridan kelib chiqib baholangan, xulosa berilgan o'rinlar ham uchraydi. Shu ma'noda, tilimiz tarixining tadqiq etilmagan yoki mustamlakachilik mafkurasi asosida baholangan jihatlarini mavjud aniq dalillar asosida qayta ko'rib chiqishga, xolis baholashga katta ehtiyoj bor.

Ushbu maqolada turk tillari tovush tizimidagi singarmonizmning adabiy tillardan chiqarishga bo'lgan harakatlar, bu jarayonda o'rta tashlangan qarashlar imkon qadar tahlil qilindi, u davrda ilgari surilgan fikrlarni xolis baholashga harakat qilindi.

Turk tillaridan singarmonizmning chiqarish haqidagi bahslar, o'rta tashlangan fikrlar, ularning asoslari mutaxassislar tomonidan maxsus tahlilga tortilmagan.

Tadqiqotga jalb etilgan manbalarning ko'pchiligi birinchi marotaba ilmiy muomalaga kiritildi, tadqiqot ob'ektiga aylantirildi.

## **Mavzuning O'rganilishi**

Hozirgacha turk tillaridagi singarmonizm, ularning xos xususiyatlari, turk tillaridagi o'xshash va farqli jihatlariga oid turli tillarda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan (Usmonov, 1926; Bogoroditskiy, 1927; Xansuvarov, 1932; Isxakov, 1955; Musayev, 1965; Kononov, 1968; Yusupov, 1979; Şimşir, 1991; Şimşir, 1992). Shuningdek, o'zbek adabiy tilidagi singarmonizm (Mahmudov, 1980; Abdullayev, 1985; Otamirzayeva, 1996; Otamirzayeva, 1998; Shoabdurahmonov, 1998; Kodjaoglu, 2017), o'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishiga bag'ishlangan (Hudoyberdiyev, 1998; Xudoyberdiyev, 2022; Xudoyberdiyev, 2024) qator tadqiqotlar yaratilgan.

Biroq turk tillaridan singarmonizmni chiqarishga bo'lgan harakatlar, ularning ildizlari maxsus tahlil etilmagan. XX. yuzyillik boshlaridagi asl manbalarni o'rganish, turli anjumanlarda ilgari surilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida turk tillaridan singarmonizmni chiqarishga bo'lgan dastlabki harakatlar Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida, keyin Butunittifoq Yangi Turk alifbosi Markaziy Qo'mitasining I plenumida Bakir Cho'ponzoda tomonidan o'rta tashlangani aniqlandi. Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyiga bag'ishlab Turkiyada (1926 Bakû Türkoloji Kongresi, 2024), Ozarbayjonda (Muasir turkologiya, 2016) bir necha anjumanlar o'tkazilgan, qurultoy materiallari turli olimlar tomonidan tahlil qilingan. B.Cho'ponzodaning singarmonizmga oid qarashlari haqida ma'ruza qilingan (Azizov, 2018). Shuningdek, Ozarbayjonda B.Cho'ponzoda tavalludining 120 va 125 yilligiga bag'ishlangan konferensiyalar ("Bakir Chobanzada va Turkologiyanning muasir problemalari, 2013; Bakir Chobanzada – 125, 2016) o'tkazilgan, Turkiyada (Acar, 2001) alohida kitoblar chop etilgan (Babayev, 1998). Lekin ularda B.Cho'ponzodaning turk tillaridan singarmonizmni chiqarish haqidagi qarashlariga munosabat bildirilmagan.

Bakir Cho'ponzodaning turk tillaridan singarmonizmni chiqarish haqidagi qarashlari Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida, Butunittifoq Yangi Turk alifbosi Markaziy Qo'mitasining I plenumida qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan, anjumanlarda ishtirok etgan mahalliy mutaxassislarining keskin e'tirozlariga sabab bo'lgan.

## **Mustamlakachilik Davri Til va Alifbo Siyosati**

Ushbu mavzuni o'rganish mustamlakachilik davri til va alifbo siyosatidagi ustuvor qarashlarni ko'rib chiqishni talab etadi. Aks holda masalaning mohiyatini to'liq yoritib bo'lmaydi. I.Stalin partiyaning XVI syezdida qilgan yakunlovchi nutqida Leninning milliy masalaga oid tadbirlarni amalga

oshirishda rioya qilinishi kerak bo'lgan "birlashtirmoq uchun bo'lmoq" fikrini keltirgan. Bu qarash asosida ish yuritish, milliy masalalarni hal etishda I.Stalinga ma'qul kelgan. Shu bois u "birlashtirmoq uchun bo'lmoq" fikri milliy masalada bolsheviklar uchun har qanday mustahkam qal'alarni egallash imkonini beradi, deb izohlaydi (Stalin, 1931, b. 9-10). Aslida, Rossiyada bu qarashning paydo bo'lishi Pyotr I ga borib taqaladi (Necip Fazil, 1992, b. 79-84). Uning vasiyatnomasi ko'rsatmalariga amal qilgan chorizm ma'murlari milliy tillar, milliy tillarning alifbosi, imlosini ham imkoni boricha o'zaro yaqin tillardan ajratish, ularga bosqichma-bosqich rus alifbosini joriy etish bo'yicha tizimli ish olib borishgan. Chorizm vaziri Milyutin "qilich bilan boshlangan ishni rus yozuvi yakunlashi kerak", degan qarashni ilgari surgan (Levin, 1931, s. 5). Nikolay I maxfiy komissiya tomonidan polyak tili uchun ishlab chiqilgan rus alifbosi asosidagi loyiha ayrim harflari shaklini shaxsan o'zi o'zgartirgan va rus yozuvini boshqa xalqlarga ham tatbiq etish fikrini bildirgan (Levin, 1931, s. 6). Turkiston general-gubernatori K. fon Kaufman esa mahalliy tillarga rus alifbosini o'zgartirmasdan joriy qilish, uning boshqa tillarni birlashtirishdagi muhim ahamiyati haqida maorif vaziri D.A.Tolstoyga xat yozgan (Iz perepiski, 1883, s. 5-7). K. fon Kaufmanning fikricha, Rossiyaning barcha okruglarida o'qitilayotgan rus bo'lmagan maktablarga rus alifbosi asl holida, hech qanday o'zgartirishsiz joriy etilishi zarur. Chunki rus alifbosi har qanday sharq tillari fonetikasini ifodalay oladi (Iz perepiski, 1883, s. 6-7). K. fon Kaufmanning bu qarashlari Orenburg okrugi noziri P.A.Lavrovskiy ham qo'llab-quvvatlagan (Iz perepiski, 1883, s. 8-9).

Chorizm davrida rus alifbosini boshqa tillarga joriy qilish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Lekin aholisi soni ko'p, o'z yozuviga ega bo'lgan xalqlarga rus alifbosini joriy etish yuzasidan qilingan harakatlar samarasiz yakunlangan (Levin, 1931, s. 4-19). Shundan keyin asosiy e'tibor yozuvi bo'lmagan xalqlarga qaratilib, ularga rus alifbosi kiritilgan. Oltoy (Surazakova, Tibikova, Chumakayeva. 1982, s. 37-41), yoqut (Petrov, 1972, s. 208-214), chuvash (Petrov, 1982, s. 92-96), cherkes, kabardin, abxaz, qorachoy-bolqor (Xabichev, 1982, s. 97-106) shor (Donidze, 1972 s. 202-205), xakas (Chankov, 1972, 183-188) singari kam sonli aholini xristianlashtirish maqsadida rus alifbosi joriy qilingan.

Chorizmning mahalliy aholi tili va alifbosiga bo'lgan bunday munosabati bolsheviklar va sovetlar davrida ham izchillik bilan davom ettirildi. XX yuzyillikning boshlarida, ayniqsa, 20-yillarda turk xalqlari ziyolilari orasida adabiy tillarni jonli tillarga yaqinlashtirish, arab, fors va rus tillaridan kirgan so'zlarni asl turk so'zlar bilan almashtirish, bu jarayonda qar-dosh tillardagi mushtaraklikni saqlash, arab alifbosiga asoslangan yozuv va

imloni isloh qilish yoki boshqa alifbo bilan almashtirish singari masalalar ustida qizg'in bahslar bo'layotgan edi. Tatariston, Qozog'istonda arab alifbosi isloh qilinib, maktab va matbaa ishlariga joriy qilindi. O'zbekistonda ham shunday harakatlar boshlanib, Fitrat rahbarligida tuzilgan "Chig'atoy gurunji" jamiyati 1919-yilda alifboni isloh qilish zarurligini kun tartibiga qo'ydi ("Chig'atoy gurunji"ning imlo to'dasi, 1919 a; ("Chig'atoy gurunji"ning imlo to'dasi, 1919 b). Shundan keyin turli munozaralar bo'lgan, anjumanlar o'tkazilgan (Xudoyberdiyev, 1996, 88-97). 1923-yilda arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi isloh qilinib, amalda qo'llana boshlangan. Natijada Tatariston, O'zbekiston va Qozog'iston ziyolilarining ko'pchiligi isloh qilingan alifbo tarafdori bo'ldilar.

Ozarbayjonda 1922-yildan lotin yozuviga o'tish harakati kuchaydi. 1923-yilda lotin alifbosi davlat yozuvi deb belgilandi (Xudoyberdiyev, 2002, 54-59).

Turkiyada til to'g'risidagi munozaralar XX yuzyillikning o'ninchi yillarida qizg'in tus oldi. Mavjud muammolarni aniqlash, yechimini topish va bartaraf qilish yuzasidan takliflar bildirildi. Umar Sayfiddin tilni "ma'naviy va muqaddas vatan" deb bildi. Uni vatan mustaqilligidan ustun qo'ydi: "Turkcha bizning ma'naviy va muqaddas vatanimizdir. Bu ma'naviy vatan istiqloli, quvvati rasmiy va milliy vatanimizning istiqloolidan yanada muhimdir. Chunki vatanini yo'qotgan bir millat agar tiliga va adabiyotiga hokim bo'lsa mahv bo'lmas, yashar va yana bir kun kelib siyosiy istiqlolini qo'lga kiritar, dushmanlaridan intiqom olar" (Ömer Seyfettin, s. 63; Ömer Seyfettin, 2024, s. 376). Yangi, uyg'onish davrida yangi, tabiiy, milliy til kerak. Hozirgi til esa xasta. Unda kimsa tushunmaydigan arabiy, forsiy qoidalar bilan tuzilgan jumlar ko'p: "Endi yangi bir hayotga, bir uyg'onish pallasiga kirgan turklarga yangi, tabiiy bir til, o'z tillari lozimdir. Milliy bir adabiyot vujudga keltirmoq uchun avvalo milliy bir til zarur. Eski til xastadir. Uning xastaliklari, ichidagi keraksiz va ajnabiy qoidalaridir. Hozirgi tilimizda arabiy va forsiy qoidalar bilan tuzilgan jumlar... Bu tilni kimsa tushunmas" (Ömer Seyfettin, s. 20-32; Ömer Seyfettin, 2024, 238-247). Umar Sayfiddin o'z maqolalarida yangi til masalasini kun tartibiga qo'ydi (Ömer Seyfettin, s. 33-50; 159-165; Ömer Seyfettin, 2024, s. 323-337, s. 279-319).

Bu jarayonlarni rus ma'mur va mutaxassislari kuzatib borgan. Sobiq sho'ro hududidagi xalqlar, jumladan, turk xalqlari alifbolarini rus yozuviga o'tkazish harakati boshlangan. Shu maqsadda 20-yillarning boshlaridan rus yozuvining afzalliklari, imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar e'lon qilishga kirishilgan. Ushbu jarayonlarni nazoratga olish, muvofiqlashtirib turish bo'yicha maxsus komissiya tuzilgan va unga tegishli vazifalarni bajarish belgilab berilgan (Jakovlev, 1924, 5).

20-yillarning boshlarida turk xalqlarini rus alifbosiga o'tkazish masalasi aniq bo'lgan edi. Arxiv hujjatlariga ko'ra, Markaziy Qo'mitaning targ'ibot-tashviqot bo'limi 1922-yilda publisist va sharqshunos Mamed Og'a Shataxtinskiy tuzgan lotin alifbosi loyihasini Xalq Komissarlari Kengashiga muhokama qilishga yuborgan (TSGAOR, f. 1318. 1). Ushbu masalani ko'rib chiqish va xulosa berish uchun Gismatulin, Aliyev, Boykov, Gordlevskiy va Musayevlardan iborat hay'at tuziladi. Moskva Sharqshunoslik instituti rektori Gismatulin raisligida 1922-yil 27-sentyabr kuni o'tkazilgan birinchi majlisda Shataxtinskiy loyihasi madaniy-ijtimoiy munosabatlar jihatidan ahamiyatga ega o'ziga xos ish sifatida baholangan (TSGAOR, f. 1318. 2). 1923-yil 17-fevralda o'tkazilgan yig'ilishda esa V.A.Gordlevskiy boshqa hay'at a'zolarining fikrlarga qarshi borib, turk xalqlari uchun rus yozuvini joriy qilish lozim, chunki, barcha Sharq xalqlari umumiyevropo madaniyatini rus tili orqali o'rganadilar, degan qarashni bildirgan (Baziyans, 1976, 75-77; Baziyans, 1979, 21-32;).

Rus yozuvining afzalliklari, qulayligi to'g'risida o'rta tashlangan fikrlar, tizimli targ'ibotlar mahalliy xalqlar ziyolilari, tilshunoslari munosabatlarini bilish maqsadida e'lon qilingan edi. Bunday qarashlar o'z davridayoq keskin qarshilikka ushragan (*Polivanov, 1928 a, Polivanov, 1928 b, s. 23-24*).

Shunday vaziyatdan keyingina ozorbayjonli ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan lotin yozuviga o'tish xususidagi harakatlar qo'llab-quvvatlangan. Bu jarayonda qardosh xalqlar tili, alifbosi, imlosini bir-biridan ajratishga qat'iy harakat qilish, ilmiy asoslashga taniqli olimlar jalb etilgan.

Stalin 1925-yilda Sharq xalqlari universiteti tashkil qilinganligining 5 yilligi munosabati bilan mazkur ta'lim muassasasining siyosiy hamda bolshevik kadrlar tayyorlashdagi muhim vazifalari to'g'risida ma'ruza qilib, milliy tillar, millatlarning kelgusida birlashib ketishi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tgan. U dastlab "Bir qanchalar sotsializm davrida hamma tillarni tashlab, umumiy kishilar tili tuzish haqida so'zlaydilar (masalan Kautskiy). Men bu hammani o'z ichiga olaturg'an til nazariyasiga ishonmayman. Ko'ruilgan turli tajribalar bu nazariyani yoqlamaydirlar, balki qarshilik ko'rsatadirlar" (Stalin, 1925, 12-13), – degan fikrni bildiradi. Uning "hammani o'z ichiga olaturg'an til nazariyasiga ishonmayman" deb aytgan fikri "tillarning birlashtirilishiga ishonmayman" degan ma'noni anglatmaydi. Stalin o'z nutqini davom ettirib, bu masaladagi qarashlarini shunday bayon etadi:

Agar so'z millatlarni yo'qsullar madaniyati bilan birlashtirish ustida ketib turg'on bo'lsa, bu birlashmak, u millatlarning til, turmushlarining usuliga muvofiq ijro bo'la borishig'a ham shubha yo'q. ... Bir necha millatlarning

birlashmak harakatida yo'qolib ketmaklariga shubha yo'q. Bunday yo'l-lar avvalda ham bo'lib kelgan. Bir necha millatlarning birlashmak harakati boshqa millatlarni chiqarib tashlamaydir. Balki buning teskarisicha bir necha yuksalgan millatlarning birlashmak harakati yoki birlashmak harakatining boshlamalari millatlarni umumiy yuksalish harakatlarining natijalaridir. (Stalin, 1925, b. 13)

I.Stalin milliy tillarning birlashtirilishi masalasiga keyingi ma'ruzalari, chiqishlarida ham alohida e'tibor berib kelgan. Meshkov, Kovalshuk va boshqa o'rtoqlarga javob" nomli asarida millatlar va milliy tillarning yo'q bo'lib ketishi, umumiy tilning vujudga kelishi va butun jahon tili yaratilishining uch bosqichi haqida ma'lumot beradi. Har bir bosqichning bir-biridan farqi, o'ziga xos xususiyati haqida to'xtalib o'tadi. U yozadi:

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining birinchi bosqichida millatlar va milliy tillar yo'q bo'lib keta boshlaydi, yagona umumiy til paydo bo'la boshlaydi, deb o'ylash xato bo'lar edi. Aksincha, birinchi bosqich ichida milliy zulim batamom yo'q qilinadi, – ilgari ezilgan millatlar va milliy tillarning o'sishi va gullashi bosqichi, millatlarning teng huquqliligi barqaror bo'ladigan bosqich, millatlarning bir-biriga ishonmasliklarini yo'q qilish bosqichi, millatlar o'rtasida internatsional aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlash bosqichi bo'ladi!

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining faqat ikkinchi bosqichidagina, yagona jahon xo'jaligi, – jahon kapitalistik xo'jaligi o'rniga, – vujudga kela boshlashi bilan bir qatorda, faqat ana shu davrda umumiy tilga o'xshagan bir narsa vujudga kela boshlaydi, chunki faqat ana shu bosqichda millatlar o'z milliy tillari bilan bir qatorda millatlar o'rtasida bitta umumiy til, – munosabat qilish qulaylashsin uchun bir umumiy til bo'lishi kerakligini sezadilar. Demak, bu bosqichda milliy tillar bilan bir qatorda millatlar o'rtasida umumiy til ham bo'ladi. Ehtimolki, dastlab hamma millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumiy butun jahon iqtisodiy markazi emas, balki millatlarning ayrim guruppalari uchun millatlarning har bir ayrim guruppasida ayrim umumiy til bo'lgan bir necha zonal iqtisodiy markaz tashkil qilinadi va shundan keyingina bu markazlar barcha millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumijahon sotsialistik xo'jalik markazi bo'lib birlashar.

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining undan keyingi bosqichida, butun jahon sotsialistik xo'jalik sistemasi yetarli darajada mustahkamlanib olib, sotsializm xalqlar hayotiga singganda, millatlar umumiy tilning milliy tillardan ko'ra afzalligiga o'z tajribasida ishonch hosil qilganda, – milliy farq va milliy tillar yo'q bo'lib keta boshlaydi va hamma uchun bir bo'lgan butun jahon tiliga o'rin bo'shatib beradi. (Stalin, 1951, 48-50)

Stalin 1950-yilda e'lon qilingan "Tilshunoslikdagi marksizim haqida" nomli asarida ham tillarning birlashishi masalasiga to'xtalib o'tgan (Stalin, 1950).

Milliy adabiy tillar me'yorlarini shakllantirish, alifbo va imlolarni qayta-qayta o'zgartirish, terminlar qabul qilish masalasi, xususan turk tillaridan singarmonizm qonunini chiqarishga bo'lgan harakatlar, o'zbek adabiy tilidan singarmonizm qonunini chiqarish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini kamaytirishning zamirida ham Stalin tomonidan ilgari surilgan umumiy tilni yaratish maqsadi yotgan edi.

### **Birinchi Butunittifoq Turkologiya Qurultoyi**

1926-yilning 26-fevral 5-mart kunlari Boku shahrida Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu sobiq ittifoqqa kirgan hududlarni qayta chegaralashdan keyin amalga oshirilgan eng muhim tadbirlardan biri edi. Unda turk tillari, alifbo, imlo, termin kabi masalalar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Ma'ruzalar, muzokarlarda to'g'ri, asosli, xolis takliflar, tavsiyalar bildirildi. Shu bilan birga, ayrim ma'ruzachilar, mulohaza bildiruvchilar tomonidan milliy tillarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik, ular orasidagi tarixiy mushtaraklikni uzishga qaratilgan qarashlar ham bildirildi.

Qurultoyda Ozorbayjon kasaba uyushmalari s'yezdi nomidan gapirgan Peskov keng ishchilar ommasi nomidan anjumanda alifbo masalasi ko'rilayotganligi, baxtli ruslar qoloq turk ukalariga ko'proq e'tibor qarataishlari, bu masalani umumiy til va yozuv bo'lgandagina amalga oshirish mumkinligi, ruslar va boshqa millatlar uchun eski arab alifbosidan foydalanib turk tillarini o'rganish juda qiyinligi, shuningdek turklarning o'zlariga ham o'qish oson emasligi, shu bois kasaba uyushmalariga birlashgan keng mehnatkash ommasining talabi hamma uchun tushunarli til, yangi lotin alifbosiga o'tish zarurligi haqida gapirgan (Perviy Vsesoyzniy tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 215). Qurultoy materiallari bilan chuqurroq tanishish asnosida markazdan tayinlangan ko'pchilik ma'ruzachilar ilgari surgan fikrlar zamirida ham shunday qarash ustuvor bo'lib turganligini payqash mumkin.

Qurultoydagi qizg'in muhokamalar jarayonida turk tillarining tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlarda ziddiyatli fikrlar, xatoliklar, kamchiliklar ham borligi turk xalqlari vakillari tomonidan aytib o'tilgan. Buning asl sababi sifatida turk tillarini o'rganayotgan turkologlar turk xalqlarining vakili emasligi, shu sababli ular turk tillarining barcha nozik, o'ziga xos xususiyatlarini bilmasligi ko'rsatilgan. Sabashkin Radlov va Ilminskiy-larning oltoy tili grammatikalarida turk tillariga xos umumiy jihatlarga yoritilgani, oltoy tilining xos xususiyatlari ochib berilmagani sababli talabga javob bermasligini bildirgan (Perviy Vsesoyzniy tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 147). Umarov turk tillarini o'rganish metodikasi haqida fikr

bildirganda, bu sohadagi eng katta kamchilik turk tillarini o'rganayotgan turkologlarning o'zi turk xalqlarining vakili emasligi, shu bois ular turk tillarining nozik jihatlarini bilmasligini qayd etgan (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 148).

O'zbekiston vakili G'ozini Yunus esa etnografiya bo'yicha qilingan ma'ruzalar muhokamasida qatnashib, turk xalqlari haqida juda kam va umumiy ma'lumot berilgani, bu xalqlarning o'ziga xos, farqli jihatlari yo'ritib berilmaganligi, o'zbeklar etnografiyasi haqida juda qo'pol xatolikka yo'l qo'yilganligini uqtirib o'tgan:

O'zbeklar haqida gapirganda, hammada qandaydir noaniq tasavvur paydo bo'ladi. Ular nimadan iborat? O'zbeklar – uzun soqolli, katta sallali, uzun, keng choponli odamlar. Shunday. Haqiqatan ham, o'zbeklar tasvirlangan albomga qarang. Bu albom bizga nima beradi? Mutlaqo hech narsa. Masalan, o'zbek o'rniga fors yoki eron millatiga mansub tojik suratga olingan; ularning ko'rinishlarida turk xususiyati mutlaqo yo'q. Bunday albomni O'zbekiston muhitini mutlaqo bilmaydigan inson tomonidan tuzilgan. (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 86-87)

G'ozini Yunus, o'zbek tili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham g'ayri ilmiy qarashlar borligiga qurultoy qatnashchilari diqqatini qaratgan:

Bizning tilchilarimiz o'zbeklarda qanday til borligini bilishmaydi. Masalan, chig'atoy, aralash o'zbek shevasini ular o'zbek tili deb aytishadi. Ular keyinchalik qandaydir sart tilini o'ylab topdilar va bu ularning maxsus tili ekanligini aytishdi, barcha sartlar esa fors tilida gaplashadi. Ular o'zbekcha gapirganda, ular fors ekanligini yaxshi bilishadi. Tojiklar va sartlarni hech qanday qiyinchiliksiz aniqlashadi. Ular o'zbekcha ham gapirishadi, men rus tilida gapiranimdek. Men rus, ular turk emasligini endi bilib olgandirsiz. Ayrim olimlarimiz esa o'z asarlarida sartlar eron irqidan kelib chiqqani, o'z tilini unutib, turk tillarini o'zlashtirgani, O'zbekistonda sart shevasi mavjudligini yozishadi. Bu albatta noto'g'ri, bu katta xato... Na Moskva, na Leningrad bu masala bilan jiddiy shug'ullanmadi. Men qurultoydan bunga e'tibor berishni so'ragan bo'lardim. (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 87)

## **Qurultoyda Turk Tillaridagi Singarmonizm Hodisasining Muhokama Qilinishi**

Qurultoyda qizg'in bahs-munozaraga sabab bo'lgan masalalardan biri turk tillaridagi singarmonizm hodisasidir. Mutaxassislariga ma'lumki, singarmonizm turk tillarining tovush tizimini birlashtirib turadigan asosiy qonuniyat ekanligi ko'plab turkologlar tomonidan e'tirof etilgan. Imlo masalasida Tatariston vakili Olimjon Ibrohimov turk tillaridagi barcha so'zlar qattiq yoki yumshoq bo'lishi, shu sababli imlo qoidalarini shakllantirishda barcha qo'shimchalarni shunga rioya qilib tuzish, turk tillariga

xorijiy tillardan o'zlashadigan so'zlarni, turk adabiy tillari uchun yangi harflarni o'zaro kelishgan holda qabul qilish, barcha turk tillari alifbolari-dagi belgilar, harflar bir shaklda bo'lishi kerakligini bildirgan (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskii syezd, 1926, s. 164-165).

Qurultoyda ishtirok etgan o'zbekistonlik Shokirjon Rahimiy barcha turk tillarida, jumladan o'zbek tilida ham singarmonizm mavjud ekanligi, o'zbek tilida unli tovushlarni ifodalash uchun harflar soni kamligini o'z tilida ko'rsatib o'tgan (uning fikrlari tarjima qilib berilgan):

Turk tillarida, xususan, o'zbek tilida singarmonizm mavjud; tojik tili-ning shahar aholisiga kirib borishi ta'sirida singarmonizm buziladi, ammo qishloq aholisi tilida singarmonizm mavjud. Uning aytishicha, unli tovushlarni bildiruvchi belgilarning dastlabki taqchilligi 6 dan 8 gacha va hatto 13 tagacha bo'lgan, O'zbekiston konferensiyasi esa bor-yo'g'i 6 ta unli tovushni sanab o'tgan, amalda unli tovushlar soni ko'p ekanligini ko'ramiz. Unli tovushlarni bildiradigan harflar soni etarli emas. U o'zbek alifbosining asosiy kamchiligini, imlo islohoti masalasi alifbo masalasi bilan chambarchas bog'liqligini, arab alifbosini moslashtirish qiyin bo'lishi va imlo masalasi ikkinchi masala – alifbo haqidagi masala bilan bog'liq bo'lishi kerakligini sanab o'tadi (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskii syezd, 1926, s. 165-166).

Shuningdek, imlo masalasida I.Alparov, N.Hakimov va B.Cho'ponzodalar ham ishtirok etib, o'z fikrlarini turk tillarida bayon etgan (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskii syezd, 1926, s. 176). Chop etilgan anjuman materiallarida ularning fikrlari keltirilmagan. Lekin munozarada qatnashganlar B.Cho'ponzoda va I.Alparovlarning fikrlariga munosabat bildirib o'tishgan. Ulardan B.Cho'ponzoda va I.Alparovlarning bildirgan ayrim fikrlarni aniqlash mumkin.

Munozarada ishtirok etgan Olimjon Ibrohimov B.Cho'ponzodaning turk tillaridagi singarmonizm va agglyutinatsiya haqidagi fikrlari noto'g'ri ekanligi, singarmonizm turk tillariga xos xususiyat bo'lib, turkologiyaga oid barcha akademik nashrlarda alohida nazariya sifatida qayd etilganligini bildirgan:

O'rtoq Cho'ponzodaning nutqidan jiddiy savol tug'iladi. Uning nutqidan menga tegishli ikki jihat bor. U singarmonizm mohiyatini va agglutinatsiyaning asosiy nuqtalarining ahamiyatini rad etadi. Menimcha, bu noto'g'ri, ayniqsa qarindosh tillarga nisbatan. Prof. Cho'ponzoda yaxshi filolog, qadimgi va turk tillarini yaxshi biladi. Unga barcha turkologlarning hamma asarlari tanish. Ham arab, ham rus, ayniqsa, Radlov va boshqalarning asarlarini biladi. Bu olimlarning barchasi mazkur tillarning hammasida bu xususiyat mavjudligini ko'rsatib o'tishgan. Barcha akademik

nashrlarda bu alohida nazariya sifatida qayd etilgan (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 178).

Olimjon Ibrohimovning mazkur fikrlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, B. Cho'ponzoda turk tillaridagi singarmonizm va agglyutinatsiya qonuniyatlari, ularning qo'llanishi haqida o'z qarashlarini bayon etgan. O.Ibrohimov B.Cho'ponzoda tomonidan bildirilgan qarashlarga e'tiroz bildirgan.

Cho'ponzoda anjumanda ilmiy terminologiya tizimi haqida ma'ruza qilganda ham singarmonizm va agglyutinatsiya masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. U turk tillariga faqat agglyutinatsiya va singarmonizm nuqtai nazaridan qaramaslik zarurligi, mazkur qonuniyatlar arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgarishga uchraganligi, shu bois turk tillari to'liq singarmonizm va agglyutinatsiya qoidalariga amal qilmasligini aytib o'tgan:

Tillarimiz bunga qanday kelmasin, kechagi nutqimda urg'ulaganim singari, bizning tilimizni faqat aglutinatsiya nuqtai nazaridan yoki singarmonizm nuqtai nazaridan belgilash mumkin emas – bu tillarimizning bir qis-miga tegishli. Hatto aytamanki, qozoq kabi sof tilda allaqachon o'ziga xos talay xorijiy elementlar qarindosh tilidagidek mavjud. Bizda turk tillariga xos bo'lgan singarmonizm yoki aglutinatsiya arab, fors tillaridan so'zlar olish bilan buzilgan. Bizning tilimiz, umuman olganda, bu o'zlashtirishni hisobga olsak, sof turk tillariga mos, shuning uchun u aglutinatsiya va singarmonizm qonunlarining asosiy qoidalariga to'liq bo'ysunmaydi. (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 191)

Tatar olimi Sh.Usmonov bunday qarashlarda turk tillariga singarmonizm shart emasligini isbotlash va turk tillari uchun to'laqonli alifbo yaratmaslik harakati yotganligini Alparov chiqishidan so'ng anglab etganligini bayon etgan. Hatto tatar tilidagi hamma so'zlar ham singarmonizm qoidasiga to'la rioya qilmasligini misollar bilan ko'rsatib bergan:

Qarshilar asosiy, tub islohotga singarmonizm qonunini qaramaqarshi qo'yishadi. Ularning maqsadini, nega qadimgi tildan qolgan bu qonunni kovlashtirishlarini tushuna olmadim. Endi o'rtoq Alparovga rahmat, tushunarli, nima bo'layotgani aniq. U bir fikrni bildirdi, men undan minnatdorman; ma'lum bo'lishicha, ular bu bilan turli yozuv uchun har qanday mukammal alifboning foydasizligini isbotlamoqchi bo'ladi-lar. Lekin men bilaman, hatto tatar tilida ham to'liq singarmonizm yo'q. "Sina", "mina" so'zlarini oling, bularga singarmonizm yo'q. Shuning-dek, tatar tilida fuqarolik huquqini olgan, ammo singarmonizm qonuni-ga bo'ysunmaydigan ko'plab so'zlar mavjud. Demak, masalan, "**ishak**", "**kitab**", "**galimdjan**", "**ibragim**" so'zlari bu qonunga amal qilishining iloji yo'q. "**Kino**", "**kilogram**", "**kilometr**", "**gidro**" kabi yangi mada-niyat va texnologiya yo'nalishlari tufayli tilimizga ko'plab so'zlar kirib kelgan. (Perviy Vsesoyznyi tuyrkologicheskiy syezd, 1926, s. 175)

Albatta, Sh.Usmonov tomonidan bildirilgan fikrlar asosli edi. Singarmonizm amal qiladigan tillardagi o'zlashma so'zlarning bir qismi, hatto tub so'zlarning ayrimlari ham, mazkur hodisaga amal qilmasligi, hozirgi turk adabiy tillarining barchasida ham bunday holat mavjudligi mutaxassislar tomonidan aniqlangan, tadqiqotlarda qayd etilgan.

Ma'lum bo'lmoqdaki, Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida tilning boshqa masalalari kabi turk tillaridagi singarmonizm hodisasi ham qizg'in muhokama qilingan. Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy, I.Alparov, Sh.Usmonovlar B.Cho'ponzodaning turk tillaridagi so'zlar arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgargani, shuning uchun turk tillari to'liq singarmonizm va agglyutinatsiya qoidalariga amal qilmasligi haqida bildirgan fikrlariga e'tiroz bildirishgan, barcha turk tillarida singarmonizm mavjudligini o'z dalillari bilan asoslashga harakat qilishgan.

### **Butunittifoq Yangi Turk Alifbosi Markaziy Qo'mitasining I Plenumida Turk Tillaridagi Singarmonizmning Muhokama Qilinishi**

Turk tillaridagi alifbo, imlo muammolarini muhokama qilishga bag'ishlangan keyingi tadbirlarda ham singarmonizm masalasi qizg'in bahslarga sabab bo'lgan. 1927-yil iyun oyining 3-7-kunlarida Bokuda o'tkazilgan Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I plenumida asosan lotin yozuvi asosidagi turk xalqlari alifbolari loyihalarini unifikatsiya qilish, ya'ni birlashtirish masalasi muhokama qilingan.

B.Cho'ponzoda ushbu plenumda ham turk tillaridagi singarmonizm masalasiga alohida to'xtalgan. Dastlab N.To'raqulov tomonidan singarmonizm tamoyili ilgari surilganligi, shu bois turk tillari alifbolaridagi harflar soni, xususan, unli tovushlarni ifodalaydigan 6 ta harfni 3 taga kamaytirish mumkinligi haqida fikr bildirgan:

O'rtoq To'raqulov, birinchidan, singarmonizm tamoyilini ilgari suradi. Uning fikricha, singarmonizm haqidagi dalillariga ko'ra, turkiy alifbodagi harflar sonini kamaytirishimiz mumkin. Shunday qilib, u harflarni saqlashni, ma'lum bir so'zning talaffuzidagi yumshoq tovushlarni ko'rsatishni taklif qiladi. Shunday qilib, "o", "ы" va "y" qattiq tovushlarni belgilash, mos keladigan yumshoq tovushlarni belgilashni esa keraksiz qiladi. Bir so'z bilan aytganda, o'rtoq To'raqulov 6 harf o'rniga atigi 3 tani taklif qiladi. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 109)

B.Cho'ponzoda singarmonizm haqidagi fikrlarini davom ettirib, mazkur hodisa mavjud yoki mavjud emasligiga qarab turk tillarini ikki guruhga ajratgan. Turkman, qozoq va qirg'iz tillarida arab va fors tillaridan o'tgan leksik qatlamli yozma adabiyot yo'q. Shu sababli bu tillarda singarmonizm bor. Yozma adabiyotlari, o'z shaharlari mavjud bo'lgan, o'zbek, Sharqiy Turkistondagi turk-tatarlar, qirim turk-tatarlari, onado'li turklari, Eron va

Kavkaz ozarbayjonlari tilida singarmonizm borligi haqida gapirish mumkin emasligi, ya'ni ularning tilida bu hodisa yo'qligini bildirgan:

Singarmonizm Turkman, qirg'iz va qozoq tillarida, qisqasi, Shimoliy Turkiston tillarida juda muhimdir. Bu tillarda so'zlashuvchi xalqlar fors-arab asosidagi adabiyotga ega bo'lmagan va boshqa xalqlar bilan muloqot qilmagan. Agar o'ziga xos adabiyotga, tilga ega bo'lgan boshqa tillarni oladigan bo'lsak, boshqa xalqlar bilan muloqotda bo'lgan, o'z shaharlari, o'z aholisi bo'lgan xalqlar o'zbeklar, Sharqiy Turkiston turk-tatarlari, qrim turkiy – tatarlar, Anadolu tirkleri, Eron va Kavkazdagi ozarbayjonlar o'rtasida singarmonizm haqida gapirishning iloji yo'q. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 109)

B.Cho'ponzoda qozoq, qirg'iz va turkman tillariga yevropo tillaridan so'zlarining o'zlashtirilishi munosabati bilan singarmonizm tabiiy yo'l bilan yo'qola borishini bayon qilgan:

Ko'pgina yevropolik olimlarimiz va bizning olimlar asarlarida isbotlanganidek, xorijiy tillardan o'zlashgan so'zlar hisobiga tilning lug'at tarkibidagi so'zlarda singarmonizm buziladi. Biz yevropo atamalarini qanchalik ko'p qabul qilsak, yevropo madaniyatiga shunchalik bog'lanamiz. Menimcha, bu ham singarmonizmni buzadi, chunki biz tilimizdan chiqarib tashlagan arabcha so'zlar singarmonizm nuqtai nazaridan yevropocha so'zlardan umuman farq qilmaydi... Men sanab o'tgan sof tillarga kelsak, menimcha, ular ham singarmonizmni buzish tarixiy zarurati qarshisida turishibdi. Qozoq, qirg'iz yoki turkman tillarida so'zlashuvchi savodsiz xalqning chorasiz mantig'idagi singarmonizm boshqa, Maxtumquli va boshqa bir qator turkman shoir va yozuvchilarida turkman tili singarmonizmni buzilgani boshqa narsa.

Menimcha, o'z adabiyotiga ega bo'lmagan xalqlarning lahjalarida, yevropocha so'zlarni o'z tillariga o'zlashtirib, ularni to'g'ri talaffuz va belgilashni o'rganganlarida singarmonizm tabiiy yo'l bilan buziladi. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 109-110)

Olim shu fikrlaridan keyin singarmonizm turk tillarining umumiy qonuniyati emas degan qat'iy xulosasini bergan: "Singarmonizm umumiy turk-tatar hodisasi emas" (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 110).

B.Cho'ponzoda tomonidan ilgari surilgan bu fikrlar qizg'in munozara va e'tirozlarga sabab bo'lgan. N.To'raqulov B.Cho'ponzodaning turk tillaridagi singarmonizmning xorijiy tillar ta'sirida yo'qolishini ilmiy asoslanmagan, masala metodologik jihatdan noto'g'ri qo'yilganini bildiradi:

O'rtoq Cho'ponzodaning asosiy dalillari mohiyati shundan iboratki, singarmonizm vaqtinchalik hodisa bo'lib, vaqt o'tishi bilan yevropa madaniyatining ta'siri kuchayishi bilan bu qonunning o'zi ham kuchini yo'qotadi va u ta'kidlaganidek, yaqin 30 yoki 50-yil ichida bu qonun tamomila unutiladi. Menimcha, bashoratlar bilan shug'ullanish bizning vazifamizga

kirmaydi. Bizning vazifamiz har bir tilning tuzilishi va fonetik tarkibini aniqlash, uning rivojlanish dinamikasi va tendensiyasini aniqlab, shu asosda o'iga xos yozuv tizimini shakllantirishdir. Agar ma'ruzachi bularning barchasini ilmiy asosda bahslashsa, boshqa gap. Ammo ma'ruza asosan bashoratlarga asoslangani sababli, men ma'ruzachi masalani uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'ygan deb bilaman. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 115)

Geldiyev B.Cho'ponzodaning 50 yildan keyin singarmonizm yo'qoladi, degan qarashini inkor qilib, qozoq tilida singarmonizm qonuni amal qilishini bildiradi, turkman tilidagi so'zlarda singarmonizm yo'qligi quruq gap ekanligini aytib o'tadi:

50 yil ichida til singarmonizmni yo'qotadi, deyish mumkin emas. Biz singarmonizmni saqlash tarafdorimiz. Aftidan, qozoq tilida singarmonizm yo'q deyishmoqda. Lekin men qozoq tili bilan tanishman, unda singarmonizm qoidasi mavjud. Keyin Cho'ponzoda ancha oldin bosilgan ayrim nashrlarga to'xtalib o'tdi. Ularda singarmonizm qoidasi yo'qola boshlaganini aytdi. Bizda hali ham xalq adabiyotimizda shunday ruhda, shunday yoziladiki, hatto arabcha va forsch atamalarning uslubi va aksariyat qismi saqlanib qolga. Turkmancha so'zlarda singarmonizm qoidalari yo'q, deyish mumkin emas. O'rtoq Cho'ponzoda nima haqda gapigan bo'lsa, quruq gap, bu she'rlar tarjima qilingan, buzilgan, hech qanday imlosi yo'q. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 127)

B.Choponzoda ma'ruzasi yuzasidan qarashlarini bayon qilgan O.Hoshim umumiy alifbo tuzishda tilning hozirgi holatini hisobga olmasdan tuzish (chunki rus va yevropo tillari ta'sirining kuchliligi), B.Choponzodaning singarmonizmga qarshi turishi, ayrim so'zlardagi istisnolar, o'zlashma so'zlarni tilning o'ziga xos tovush tizimiga bo'ysundirishda rus tili tajribasini qo'llash kabi masalalarga aniq dalillar bilan to'xtalgan:

Lekin men o'rtoq Cho'ponzodaning ayrim qoidalariga qo'shilmayman. O'rtoq aytadiki, umumiy alifbo tuzishda biz zamonaviylikdan chiqmasligimiz kerak, chunki biz rus va yevropa tillari ta'siridamiz, yaqin zamonlarda o'z tilimiz bo'lmaydi, uni yo'qotamiz. Shundan kelib chiqib va o'zining asosiy qoidalarini isbotlash uchun o'rtoq Cho'ponzoda go'yoki arablar, forslar va boshqalar ta'sirida bo'lmagan qirg'iz, qozoq va boshqa xalqlarni misol qilib keltiradi. Avvalo, kelajak haqida gapirishning hojati yo'q. Biz hozirgi holatimizdan boshlashimiz kerak: biz hozirda qanday darajadamiz, hozirda tilimiz qanday holatda. Kelajakda, ehtimol, alohida tillar bo'lmaydi, barcha tillar birlashib ketishi mumkin. Lekin hozir o'zbeklarda singarmonizm qonuni yo'q deb tasdiqlash, bu o'rtoq Cho'ponzodaning so'zlari, mumkin emas. Men tasdiqlaymanki, bizda singarmonizmning asosiy qonuni saqlanib qolgan, bu haqda bizning yig'ilishda aniqlik kiritilgan. Biz to'rtta konferensiya o'tkazdik, ularda tilimiz singarmonizm qonuniga asoslanishi tan olingan. O'rtoq Cho'ponzoda sin-

garmonizm qonuniga qarshi norozilik bildiradi va mutlaqo boshqa masalani ko'taradi. Hozir arabchilar bilan kurash bormoqda, endi lotinchilar bilan ham shunga o'xshash kurash boshlanadi. Singarmonizm asosiy qonun sifatida qabul qilish deganda, barcha so'zlar, kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar turklarning singarmonizm qonuniga bo'ysunishi shart. Bizning yig'ilishimizda ham ba'zi o'rtoqlar e'tiroz bildirishdi. Gap tilni mustamlakachilarning umumiy qonuniga bo'ysundirishmi yoki uni avvalgidek qoldirish kerakmi? Agar bizda singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydigan so'zlar bo'lsa, demak, ularni asl kelib chiqishidek qoldiramiz. Agar siz ushbu qoidani qabul qilsangiz, ular singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydi. Yana bir masala, ularni bo'ysundirish kerakmi yoki yo'qmi, yoki ular turkiy so'zlar ustidan hukmronlik qiladimi? Bu masala bo'yicha shuni aytmoqchimanki, masalan, yuz yillik adabiyotga ega bo'lga Rossiyani yoki madaniyati yuqoriroq bo'lgan boshqa davlatlarni oladigan bo'lsak, barcha chet el atamalari tilning umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, rus hech qachon “**elektrofikatsion**” yoki “**kooperatsion**” demaydi. Bizning o'zbeklar ham shunday. O'zbeklar “kooperatsiya” demaydi. Ular bu so'zlarni o'zlarining singarmonizm qonunlariga qanday bo'ysundirishni bilishadi, ular “kapertaiya” deyishadi. Demak, yot so'zlar ham singarmonizm qonuniga bo'ysunadi... Agar shunday bo'lsa, o'rtoq Cho'ponzoda kabi o'zbek, turk va boshqa xalqlarning tillari singarmonizm xususiyatiga ega emas, deb gapirmaslik kerak. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 129-131)

Turk xalqlari alifbolarini unifikatsiya qilish yuzasidan bildirilayotgan fikrlarda asosiy e'tibor alifbolardagi harflar sonini qisqartirishga qaratilganligi mahalliy olimlar e'tirozlariga sabab bo'lgan.

Sh.Manatov asosiy ma'ruzachilar bo'lgan N.To'raqulov hamda B. Cho'ponzoda tomonidan bildirilgan fikrlardagi kamchiliklarga to'xtalib o'tgan:

O'rtoq To'raqulov “c”, “q”, “ш” ni chalkashtirib yubordi. Uning aytishicha, o'zbeklar “kach”, qozoqlar “kash”, boshqirdlar esa “kas” deb o'qiydilar. Yaxshi, biz bunga rozi bo'ldik. Ammo bizda “sha” ham bor. O'rtoq To'raqulov bizga qanday harf taklif qiladi? O'rtoq To'raqulov shu yerda mutlaqo o'ylamasdan xato qiladi. Agar biz bu belgini “sha” uchun olsak, tatarlar uni “sha” uchun qabul qilishlari kerak va biz uni “s” deb qabul qilamiz, chunki bizda ham “sha” bor. Shuning uchun ham ushbu masalada o'rtoq To'raqulov bilan kelisha olmaymiz. O'rtoq Cho'ponzodani tanqid qilishdi va albatta uni uzoq vaqt tanqid qilish mumkin edi. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 132)

Sh.Manatov tavsiya etilayotgan tatar alifbosi loyihasi haqidagi qarashlarini bildirib, uning ko'p joylari ma'qulligi, lekin ayrim harflarni qisqartirish tatar tilining milliy tovush xususiyatlariga putur yetkazishini dalillar asosida ko'rsatgan:

Men tatar loyihalarini ko'rib chiqdim. Men ularning ko'p jihatga roziman, lekin ularda tanqid qilish va tuzatish kerak bo'lgan bema'ni joylari ham bor. Masalan, ular "k" va "q" uchun bitta belgini taklif qilishadi, tatarlar ham inkor qilishmaydi, ular ham unilarda shunday natija bo'lishini xohlashadi, "k" ni o'qiyimiz yoki "k" deb yozamiz kabi. Tatarlar "PAK" so'zi bor deyishadi, bu yerda "k" bor, keyin "APAq" so'zi bor, bunda "q" ni eshitish mumkin; o'rtoq Sayfi "PAK"ni "APAq" bilan bir xil "K" harfi bilan yozadi, men uni "APAK" deb o'qishim kerak. Keyin barcha tatarlar, boshqirdlar va qozoqlar bizning ustimizdan kulishadi. Ular "q" harfini qayerga qo'yganimizni so'rashadi. Ehtimol vaqt o'tishi bilan biz bu tovushni yo'qotarmiz, hozirda "q" tovushi bizda mavjud. Bu yerda qattiq unli va u yerda qattiq unli. Bu tanqid qilishga arzimaydi. Xuddi shu narsani "r" va "ᠠ - ᠢ" uchun ham aytish mumkin. (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 133)

U. Aliyev B. Cho'ponzodaning tilga shet tillardan so'z kirishi hisobiga boyiydi va singarmonizm yo'qoladi, degan qarashini ma'qullamasligini aytgan:

Men o'rtoq To'raqulovning xorijiy so'zlar muayyan tillarga moslashishi kerak degan fikriga qo'shilaman. O'rtoq Cho'ponzodaning xorijiy tillardan ko'plab so'zlar kirishi bilan tilning boyishi va singarmonizmning yo'qolib borishi haqidagi qarashiga qo'shilmayman. Men bunga rozi emasman (Stenograficheskiy otchet pervogo, 1927, s. 140).

Butunittifoq yangi turk alifbosi qo'mitasining Birinchi plenumida turk xalqlari uchun yagona alifbo ishlab chiqish masalasi ham muhokama etilib, uning zamirida ham alifbolardagi harflar sonini kamaytirish, yagona alifbo va til, hatto, xalqaro miqyosidagi tilni yaratish maqsadi mavjud edi (Дмитриев, 1932, s. 90). "Alifbolarni birlashtirish, tillarni birlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, kelajakda yagona xalqaro tilni yaratish vositalaridan biridir" (Tezisi metodologicheskogo sektora, 1932, s. 92).

B. Cho'ponzodaning turk tillaridan singarmonizmni chiqarishga oid qarashlari assossiz ekanligi haqida o'zbek ziyolilari ham munosabat bildirishgan:

Bundan boshqa yana bir qiziq da'vo yaqinda Toshkentda ittifoq lotinchilarining keng plenumi bo'lib, o'tdi. Shunda profiso'r B. Cho'ponzodaning umumturk tili to'g'risida ilmiy ma'ruzasida bo'lib o'tdi. B. Cho'ponzoda mana shul ma'ruzasida turk tillarining singarmo'nizm qoidasidan uzoqlasha borg'anlig'in, bu kun singarmo'nizm turk millatining ozg'ina bir qismida saqlanib ko'pida buzilg'onlig'in va turk tillari uchun fo'netika qoidasi ekanligin da'vo va isbot etmishdir.

Shubhasiz bu da'vo bizning singarmo'nizm dushmanlariga juda yoqib ketibdir. Bu so'zlarni quloqlarig'a halqa qilib taqib olib har yerda uning madxini qila boshlamishlar... (Singarmo'nizmshi, 1928)

Otajon Hoshim "Boku plenumi natijasi" nomli maqolasida shunday deb yozadi:

Bu qonung'a qarshi chiqq'uchilar bor; o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar orasida bo'lmasa ham, ozorbayjonli o'rtoqlar orasida bor. Albatta, singarmo'nizm qonuniga qarshi chiqish boshqa, to'g'ri dalillar bilan bu qonunning yo'qligini isbot etish boshqa. Qarshi chiqq'uchilar: til borg'on sari o'zgargandek, singarmo'nizm ham o'zgaradi va o'zgargandir; u o'zgarish shunday natijaga olib keladiki, singarmo'nizm kuchli qonun bo'lmay qoladi va undan keyin unga suyanish yaramaydi deyдилar. Bu fikr hech bir to'g'ri emas, chunki biz alifboni kelgusidagi emas, hozirdagi tilimizga asos qilishimiz kerak. Kelgusida balki iqtisodiy o'zgarish orqasida til oyirmasi ham bo'lmas, ya'ni umumiy bir til bo'lar. Qanday bo'lmasin, bu tarix ishi. Hozirgi vaqtda tilimizda singarmo'nizm hukm surar ekan, mushtarak alifboni shunga asos qilish kerak. Mana shu asosga suyanib Boku plenumi butun turk lahjalarida singarmo'nizm borligini ta'kidlaydi. Plenum har tovushg'a birtadan shakl oldi. Shunday bo'lsa ham singarmo'nizmni qabul qilish natijasida chiqodirg'on unli (soit) tovushlarni shaklan kamaytirish masalasini istagan jumhuriyatlar ixtiyorig'a qo'ydi". "O'zbek, umuman, turk tilining boshqa, xususan, arab, fors tillari bilan robitada bo'lishi bilan birga, unga chet so'zlar qo'shilg'on. Bu chet arab, fors so'zlari ko'pincha qalinliq va ingichkalik, ya'ni singarmo'nizm qonunig'a bo'yinsunmaydi. Lekin bunday so'zlar turk so'zlariga qarag'on-da juda ham oz. Bu chet so'zlar singarmo'nizm ahamiyatini yo'qota olmaydi va yo'qota olmog'on. (Otajon, 1927, s. 55)

Ushbu plenum va Otajon Hoshimning maqolasiga munosabat bildirgan H.Jamolxonov turk tillaridan singarmonizmning chiqarilishi haqida bildirilgan fikrlarga to'xtalmagan (Jamolxonov, Sapayev, 2007, b. 35-40).

## **B. Cho'ponzodaning Turk Tillaridagi Singarmonizm Haqida Matbuotda Bildirgan Fikrlari**

B.Cho'ponzoda Boku qurultoyi natijalari haqida fikr bildirganda singarmonizm hodisasi ustida bo'lgan munozaralarga to'xtalib, O'rta Osiyo respublikalari: Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziya va Qozog'iston vakillari alifboni singarmonizm asosida shakllantirish haqida fikr bildirganliklari, Turkmaniston va O'zbekistonliklar ikkinchi plenumgacha o'z fikrlaridan qaytib, birlashgan alifboni qabul qilish tarafiga o'tganliklarini qayd etadi. Boshqa respublikalarni ham singarmonizmsiz alifbo va imloni qabul qilishga da'vat qiladi. Singarmonizmni qabul qilganda qator murakkabliklar, chalkashliklar kelib chiqishini alohida urg'ulab o'tadi. Chet so'zlarining sun'iy ravishda buzilishi chet tilini, shu jumladan rus tilini o'zlashti-

rish imkonsiz bo'ladi, bu lingvistik, pedagogik, umumiy madaniy jihatdan yaxshilikka olib kelmasligini uqtirib o'tadi (Choban-Zade, 1928, s. 21-24).

Agar pedagogika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, alifboda singarmonizm tamoyilini qo'llash o'qituvchini nihoyatda qiyin holatga solib qo'yadi. Chunki 8-9 yoshli bolalarga singarmonizm kabi murakkab lingvistik hodisani tushuntirish deyarli imkonsizdek tuyuladi. Bunday tushuntirishsiz alifboni asoslash va bolalarni o'qitish deyarli imkonsizdek ko'rinadi...

Oktyabr inqilobidan keyin qozoq tili ko'plab xorijiy so'zlarning kirib borishi tufayli jadal rivojlanish yo'liga kirdi. Ushbu o'zlashmalar soni hali ko'p emas, ko'plab qozoq ishchilari xorijiy so'zlarni singarmonizm qonunlariga bo'ysundirish imkoniyatini topadilar, buning natijasida xorijiy so'zlar va atamalar shafqatsizlarcha buziladi. Oqibatda qozoq talabasi bir xil xorijiy atamani turli shakllarda o'rganishga majbur bo'ladi. Bundan tashqari, begona so'zlarning buzuq shakli "**kemitet**" yoki "**kemiti**" va "**kaparesiye**" yoki shunga o'zshash buzuq shakllarning mavjudligi sababli so'zning to'g'ri, asl shaklini o'zlashtirishga doimo to'sqinlik qiladi. Ushbu so'zlarning to'g'ri shakllari: "**komitet**", "**kooperatsiya**" deyarli har doim qozoqning talaffuzi uchun imkonsiz bo'lib qoladi va shuning uchun har qanday chet tilini, shu jumladan rus tilini o'zlashtirish deyarli imkonsiz bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, xorijiy so'zlarning bunday sun'iy buzilishi na lingvistik, na pedagogik, na umumiy madaniy jihatdan yaxshilikka olib kelmaydi. (Choban-Zade, 1928a, s. 22)

Olim 1928-yilda o'zbek tilida e'lon qilgan maqolasida singarmonizm XI. yuzillikgacha turk tillarining asosiy xususiyati, bu xalqlar janub va g'arbga siljigandan keyin boshqa tillarning ta'sirida singarmonizm buzila boshlagani, singarmonizmning qo'llanishi shaharlari rivojlanmagan va islom ta'siriga berilgan yozma adabiyoti bo'lmagan xalqlarda saqlanib qolganligini bayon etdi. Turki tillari uchun singarmonizmni qabul qilmaslik zarur, degan qat'iy fikrni bildiradi:

Singarmonizm 11 nchi asrgacha turk xalqlarining umumiy xususiyati edi. Bu xalqlar janubga va g'arbga tarqalib ketgandan so'ng, turk-tatarlarning ko'pining tili, somiy va oriy xalqlarning tili bilan aralashdi. Buning natijasida bu tillarga chet unsurlar ko'p miqdorda kirib, singarmonizm qonuni buzildi.

Singarmonizmning qo'llanishi faqat, shaharlari sust rivojlangan va islom ta'siriga berilgan yozma adabiyoti bo'lmagan xalqlarda bir daraja saqlanib qolgan. Shunday qilib, turk xalqlarining birinchi guruhi uchun alifbeda singarmonizmning qo'llanishi mutlaqo mumkin emas, ikkinchi guruh uchun bo'lsa pedagogiya va lisoniyat nuqtai nazaridan muvofiq emas, ham zararlik. Chunki buning natijasida belgilar kamayib, mazkur shevalardagi tipovoy ovozlarni yo'qoladi. Bu ovozlarning belgisini alifbeda topolmagan o'quvchi yoki o'qituvchi, mazkur so'zni o'qigan bilan yaxshi

tushunolmaydi. Shu sababdan qozoqlarning alifbega singarmonizmni qabul qilmaymiz, deyishini tabrik qilish kerak. (Cho'ponzoda, 1928)

Turk tillaridan singarmonizm hodisasini chiqarishga qilingan harakatlar natijasiz yakunlangan, turk xalqlari vakillari tomonidan qarshilikka uchragan. Shu sababli 30-yillarning boshlaridan deyarli barcha turk tillarining alifbolari (Voprosi sovershenstvovaniya, 1972), imlolari (Opit sovershenstvovaniya, 1982) singarmonizmga moslab tuzilgan.

30-yillarning boshlaridan o'zbek adabiy tilidagi unlilar soni, singarmonizm hodisasi haqidagi qarashlar o'zgara boshlagan. Yangi jamiyatda yangi o'zbek adabiy tili shakllanayotganligi, o'zbek tili o'sib, rivojlanib singarmonizm hodisasi mutlaqo yo'qolish arafasida ekanligi, o'zbek adabiy tili imlosini qaytadan tuzish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini qisqartirish zarurligi kun tartibiga qo'yilgan. Bu masala 1933-yil 7-yanvarda Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasi huzuridagi Ilmiy kengashda muhokama qilinib, Otajon Hoshimning ma'ruzasi tinglangan. 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda bo'lgan Til-imlo konferensiyasida tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unlilar soni 6 ta (**a, ə, o, u, i, e**) qilib belgilangan, singarmonizm yangi sharoitda yo'qolib borayotganligi alohida ta'kidlangan. Mazkur imlo qoidalari O'z MIK prezidiumining 1934-yil 13-mart qarori bilan tasdiqlangan, unda singarmonizm o'zbek adabiy tilidan chiqarilgan, unlilar soni 9 tadan 6 taga tushirilgan (Xudoyberdiyev, 2022a, B. 38-73).

Faqat davr mafkurasi, siyosiy tazyiqi tufayli bu hodisa o'zbek adabiy tilidan chiqarilgan (Hudoyberdiyev, 1998, S. 433-443; Hudayberdiyev, 2022, B. 38-50; Shu muallif, 2022a, B. 38-73; Shu muallif, 2023.).

### **Xulosa**

Yuqorida keltirilgan dalillardan shunday xulosa chiqarish mumkin.

1. Chorizm ma'murlari tomonidan milliy tillar, milliy tillarning alifbosi, imlosini imkoni boricha o'zaro yaqin tillardan ajratish, ularga bosqichma-bosqich rus alifbosini joriy etish bo'yicha harakat qilingan. Mutasaddi rahbarlar, ta'lim muassasalari yetakchilari orasida rus bo'lmagan millatlarga rus alifbosini o'z shakli va tartibi bo'yicha joriy etish tarafdorlari bo'lgan.

2. XX. yuzyillikning 20-yillaridan sharqshunoslik bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga sobiq ittifoqdagi Sharq xalqlari yozuvlarini tubdan o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma berilgan. 1926-yilda Boku shahrida o'tkazilgan Butunittifoq birinchi turkologiya qurultoyi, Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I plenumida B.Cho'ponzoda tomonidan turkiy tillardan singarmonizmni chiqarish to'g'risida fikrlar bildirilgan.

3. Otajon Hoshim, Nazir To'raqulov, Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy, I.Alparov, Sh.Usmonov, Sh.Manatov kabi milliy ziyolilar B. Cho'ponzodaning turkiy tillardagi agglyutinatsiya va singarmonizmni chiqarish, turk tillaridagi unli tovushlarni bildiradigan harflar sonini kamaytirish haqidagi fikrlariga e'tiroz bildirishgan, barcha turkiy tillarda singarmonizm mavjudligi va unli tovushlar soni ko'pligini dalillar asosida isbotlab berishgan.

4. 30-yillarning boshlaridan o'zbek adabiy tilidagi unli soni, singarmonizm hodisasi haqidagi qarashlar o'zgarib boshlagan. Yangi jamiyatda yangi o'zbek adabiy tili shakllanayotganligi, o'zbek tili o'sib, rivojlanib singarmonizm hodisasi mutlaqo yo'qolish arafasida ekanligi, o'zbek adabiy tili imlosini qaytadan tuzish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini qisqartirish zarurligi kun tartibiga qo'yilgan. Bu masala 1933-yil 7-yanvarda Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasi huzuridagi Ilmiy kengashda muhokama qilinib, Otajon Hoshimning ma'ruzasi tinglangan. 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda bo'lgan Til-imlo konferensiyasida tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unli soni 6 ta (**a, o, u, i, e**) qilib belgilangan, singarmonizm yangi sharoitda yo'qolib borayotganligi alohida ta'kidlangan. Mazkur imlo qoidalari O'z MİK prezidiumining 1934-yil 13-mart qarori bilan tasdiqlangan, unda singarmonizm o'zbek adabiy tilidan chiqarilgan, unli soni 9 tadan 6 taga tushirilgan.

---

**Etik Komite Onayi:** Araştırmada etik kurul iznine gerek yoktur.

**Mali Destek:** Araştırma için herhangi bir mali destek alınmadı.

**Çıkar Çatışması:** Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan eder.

---

**Ethical Committee Approval:** Ethical committee approval is not required for this research.

**Funding:** This research received no external funding.

**Conflicts of Interest:** The author declares no conflicts of interest in this study.

---

## Adabiyotlar

- 1926 Bakû Türkoloji Kongresinin 70. yıl dönümü toplantısı bildirileri. Türk Dil Kurumu.
- Abdullayev, F. (1985). K istorii utrati Singarmonizma v uzbekskom yazike. *Tyurkskoye yazikoznaniye materialy III Vsesoyuznoy tyurkologicheskoy konferentsii*. Fan.
- Acar, K. (2001). *Kırımlı Bekir Sıdkı Çobanzade*. Türk Dil Kurumu.
- Azizov, E. (2018). Bakir Chobanzadanin elmi yaradiciligında ahang qanunu masalasi va saitlar ahangina dair bazi mulahizalar haqqında. *BAKİR CHOBANZADA – 125. «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları*.
- Babayev, A. (1998). *Bəkir Çobanza* (Monografiya). Şarq-Qarb.
- Baziyans, A. (1976). V. A. Gordlevskiy I reforma pismennosti tyurkskix yazikov. *Sovetskaya turkologiya*, 5.
- Baziyans, A. (1979). *Vladimir Aleksandrovich Gordlevskiy*. Nauka.
- Bəkir, Çobanzadə – 125 (2018), «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları.
- Bəkir Çobanzadə və Türkologiyanın müasir problemələri (2013). mövzusunda Respublika elmi konfransının materialları. 31 may 2013-cü il.
- Bogoroditskiy, B. (1927), “Zakoni singarmonizma v tyurkskix yazikax”. *Otdelnyy ottisk iz “Vesnika Nauchnogo Obshestva Tatarovedeniya*, 6.
- Chankov, D. (1972). “Sozdaniye I usovershenstvovaniye xakasskogo alfavita”, *Voprosi sovershenstvovaniya alfavitov tyurkskix yazikov SSSR*. Moskva.
- “Chig‘atoy gurungi”ning imlo to‘dasi (1919 a). Imlo masalasi. *Ishtirokiyun*. Toshkent, 24-may.
- “Chig‘atoy gurungi”ning imlo to‘dasi (1919 b), “Imlo masalasi”, *Ishtirokiyun*. Toshkent, 13-iyun.
- Cho‘ponzoda (1928 a). “Alifbe birligi. Singarmonizm va fonetika masalalari”. *Qizil O‘zbekiston*, 18-yanvar.
- Choban-Zade. (1928 b). “Itogi unifikatsii alfavitov tyurko-tatarskix narodov”. *Kultura i pismennost Vostoka*. Kniga III-ya.
- Əzizov E. (2018), “Bəkir Çobanzadənin elmi yaradiciligında ahəng qanunu məsələsi və saitlər ahənginə dair bəzi mülahizələr haqqında”, *Bəkir Çobanzadə – 125. «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları*. Bakı.
- Hudayberdiyev, J. (2022 a), Özbek edebî dilinde ses uyumunun yok edilişi. *O‘zbekiston: til va madaniyat*. 4(1).
- Hudayberdiyev J. (2022 b). O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. *til va madaniyat*, 4.

- Hudoyberdiyev, C. (1998). Özbeçede ses uyumunun yok edilişi (S. Fedakâr, Akt.). *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 5, 433-443
- Isxakov, F. (1955). Garmoniya glasnix v tyurkskix yazikax. Issledovaniya po sravnitelnoy grammatike tyurkskix yazikov. *Fonetika*.
- Iz perepiski, (1883). Iz perepiski po voprosu o primenenii russkogo alfavita k inorodcheskim yazikam. Tip. Un-ta.
- Jamolxonov, H. va Sapayev, Q. (2007). *Imlo muammolari*. Toshkent.
- Kodjaoglu, T. (2017). K problem nebnoy garmonii glasnix v uzbekskom yazike, *Turkologiya*.
- Kononov A. (1968). *Tyurkskaya filologiya v SSSR 1917-1967*.
- Levin, I. (1931). Materiali k politike tsarizma v oblasti pismennosti "inorodtsev". *Kultura i pismennost Vostoka*. Kniga IV.
- Mahmudov, A. (1980), Tilda singarmonizm, urg'u va tovush sistemasining o'zaro munosabati, *O'zbek tili va adabiyoti*. 4-son.
- Muasir turkologiya, (2016). *Muasir turkologiya: dunan, bu gun va sabah (problemlar va perspektivlar)* Birinci Turkoloji Qurultayın 90 illik yubileyina hasr olunmiş. Respublika elmi konfransinin materiallari. 28 dekabr 2016-cı il Bakı: Elm va tehsil.
- Musayev, K. (1965). Alfaviti yazikov narodov SSSR.
- Necip Fazıl (1992). Moskof. Büyük doğu.
- Opit sovershenstvovaniya (1982). *Opit sovershenstvovaniya alfavitov i orfografiy yazikov narodov SSSR*.
- Otajon. (1927). Boku plenumi natijasi. *Maorif va o'qitg'uvchi*, 7-8.
- Otamirzayeva, S. (1996). Singarmonizmi tiklash shartmi?. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*.
- Otamirzayeva, S. (1998). "A" yumshoqmi yo qattiq, *Fan va turmush*. № 1.
- Ömer Seyfettin. *Türkçeye karşı enderunca*. Dil Konusunda Yazılar. Bütün eserleri 13. Bilgi Yayınevi.
- Ömer Seyfettin. (2024). *Bütün nesirleri*. Türk Dil Kurumu.
- Perviy Vsesoyznyi turkologicheskiy syezd. (1926). 26 fevralya - 5 marta 1926 g. (Stenograficheskiy otchet)..
- Petrov, N. (1972). Alfavit yakutskogo yazika. *Voprosi sovershenstvovaniya alfavitov tyurkskix yazikov SSSR*.
- Petrov, N. (1982). Chuvashskiy yazik. *Opit sovershenstvovaniya alfavitov i orfografiy yazikov narodov SSSR*.
- Polivanov, Y. (1928a), *Nevozmojno molchat. Pravda Vostoka*.
- Polivanov, Y. (1928b). *Osnovniye formi graficheskoy revolyutsii v turetskix pismennostyax SSSR. Noviy Vostok*.
- Shoabdurahmonov, Sh. (1998). O'zbek tilida singarmonizm. *O'zbek tili va adabiyoti*, 4.

- Singarmo'nizmsi (1928). Yana til-imlo masalasi ustida. *Qizil O'zbekiston*, 15-fevral.
- Stalin, I. (1925). Sharq xalqlari dorilfununing siyosiy vazifalari.
- Stalin, I. (1931). O natsionalnom voprose i natsionalnoy kulture. *Kultura i pismennost Vostoka*. Kniga VII – VIII, –M, 5-13.
- Stalin, I. (1951). *Milliy masala va leninizm*. Meshkov, Kovalchuk va boshqa o'rtog'larga javob.
- Stalin, I. (1950). Tilshunoslikdagi marksizm haqida. *Qizil O'zbekiston*.
- Stenograficheskiy otchet pervogo plenuma (1927). Vsesoyuznogo sentralnogo komiteta novogo tyurkskogo alfavita, zasedavshego v Baku ot 3-go do 7-go iyunya 1927 goda.
- Surazakova, N., Tibikova, A. ve Chumakayeva, M. (1982). Altayskiy yazik. K voprosu ob usovershenstvovaniy pismennosti, *Opit sovershenstvovaniya alfavitov i orfografiy yazikov narodov SSSR*.
- Şimşir, B. (1991). *Azerbaycan'da Türk alfabesi tarihçe*. Ankara.
- Şimşir, B. (1992). *Türk yazı devrimi*. Türk Tarih Kurumu.
- Tezisa metodologicheskogo sektora NIYZ. (1932), "Principi unifikatsii alfavitov", *Revolyutsiya i pismennost*. 1-2(11-12).
- TSGAOR, f. 1318.
- Usmonov, M. (1926). Turkiyot qurultoyida alifbo masalasi. *Maorif va o'qituvchi*, 3.
- Voprosi sovershenstvovaniya. (1972), *Voprosi sovershenstvovaniya alfavitov turkskix yazikov SSSR*.
- Donidze, G. (1972). Shorskiy alfavit. *Voprosi sovershenstvovaniya alfavitov turkskix yazikov SSSR*.
- Xabichev, M. (1982). Yaziki narodov Karachayeva-Cherkeckiy AO, *Opit sovershenstvovaniya alfavitov i orfografiy yazikov narodov SSSR*.
- Xashimov, A. (1933). Noviy uzbekskiy literaturniy yazik I nekotoriye voprosi ego orfografii. *Revolyutsiya i pismennost*, I(16).
- Xansuvarov, I. (1932). Latinizatsiya – orudiye Leninskoy natsionalnoy politiki.
- Xudoyberdiyev, J. (1996). O'zbek yozuvi tarixidan (Arab alifbosi va uning islohi). *Milliy mustaqillik. Til va adabiyot masalalari*.
- Xudoyberdiyev, J. (2002 a). Birinchi turkiyshunoslar qurultoyining chaqirilishi haqida, *O'zMU xabarlari*. 2-son.
- Xudoyberdiyev, J. (2022 b). O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. *O'zbekiston: til va madaniyat*, 4.
- Xudoyberdiyev, J. (2024). *O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi*. (Monografiya). Bookmany print.
- Yusupov, K. (1979). *O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti va yozuv masalasi*. Toshkent.

## Extended Summary

At the beginning of the 20th century, crucial issues concerning the standardization of literary Turkic languages – such as orthography, alphabet, and terminology – were actively discussed in the press and at various conferences. These historical sources have been extensively analyzed by numerous scholars. However, some of these studies have evaluated and drawn conclusions based on the ideological principles of Soviet doctrine. In this regard, there is a significant need to reassess unexplored aspects of these sources, as well as those previously analyzed through the lens of colonial ideology, using objective and verifiable evidence.

This article examines the efforts to remove syngarmony from literary Turkic languages, analyzes the perspectives presented during this process, and seeks to objectively evaluate the arguments put forward at the time. The debates surrounding the removal of syngarmony from Turkic languages and the rationale behind these discussions have not yet been thoroughly studied by specialists.

While extensive research has been conducted on syngarmony in Turkic languages – its specific characteristics, as well as the similarities and differences among these languages – studies addressing the removal of syngarmony from literary Turkic languages remain scarce. An examination of original early 20th-century sources and an analysis of discussions held at various conferences reveal that the initial attempts to eliminate syngarmony were introduced by Bakir Chobanzoda during the First All-Congress of Turkology and later at the First Plenum of the Central Committee for the New Turkic Alphabet. Remarkably, despite several conferences dedicated to the First All-Union Congress of Turkology in Turkey and Azerbaijan, as well as analyses of the congress materials by various scholars, none have addressed Chobanzoda's views on the elimination of syngarmony from Turkic languages. Additionally, despite conferences in Azerbaijan commemorating the 120th and 125th anniversaries of Chobanzoda's birth, as well as dedicated publications in Turkey, his stance on this linguistic issue has not been examined.

Chobanzoda's ideas on the removal of syngarmony provoked intense debates at the First All-Union Congress of Turkology and the First Plenum of the Central Committee for the New Turkic Alphabet, meeting strong opposition from local specialists. These efforts to eliminate syngarmony were, in fact, deeply rooted in the linguistic policies of Tsarist Russia, which aimed to restructure and separate national languages and alphabets while gradually imposing the Russian script. Tsarist officials actively sought to distance related languages from one another and introduce the Russian alphabet step by step. For instance, Minister Milyutin advocated the idea that "what was begun with the sword should be completed with Russian writing." Similarly, Nicholas I personally modified the Cyrillic-based script proposed for the Polish language and suggested its adoption for other ethnic groups within the Russian Empire. The Governor-General of Turkestan, K. von Kaufman, even wrote to the Minister of Education, D. A. Tolstoy, emphasizing the importance of implementing the Russian alphabet for local languages without modification and highlighting its role in linguistic unification.

During the Tsarist era, efforts were made to introduce the Russian alphabet to non-Russian languages; however, attempts to impose it on large populations with established writing systems did not yield the desired results. Consequently, the Russian script was first imposed on smaller ethnic groups, such as the Altai, Yakut, Chuvash, Circassian, Kabardin, Abkhaz, Karachay-Balkar, Shor, and Khakas peoples, often under the pretext of Christianization. This linguistic policy continued systematically under the Bolsheviks and the Soviet government.

In the early 20th century, particularly in the 1920s, intellectuals among the Turkic peoples engaged in heated debates on language reform. Their discussions focused on bringing literary languages closer to vernacular speech, replacing Arabic and Persian loanwords with native Turkic equivalents, preserving linguistic commonalities among Turkic languages, and reforming or replacing the Arabic-based script. Reforms of the Arabic alphabet were implemented in Tatarstan and Kazakhstan, where the revised script was introduced in schools and printing presses. Similar initiatives began in Uzbekistan, where the Chig'atoy Gurungi society, founded by Fitrat in 1919, advocated script reform. Following various discussions and conferences, a reformed Arabic-based Uzbek script was adopted in 1923. Consequently, many intellectuals in Tatarstan, Uzbekistan, and Kazakhstan supported this modified script. Meanwhile, in Azerbaijan, the movement to adopt the Latin alphabet gained momentum in 1922, and by 1923, it was officially declared the national script.

In Turkey, linguistic debates intensified in the 1910s, with scholars such as Ömer Seyfettin raising the issue of language reform in their writings. These developments were closely monitored by Russian administrators and specialists, leading to a Soviet campaign to transition the alphabets of Turkic peoples to the Russian script. From the early 1920s onward, articles promoting the advantages of the Russian alphabet began to appear; however, these ideas faced strong opposition from local scholars and intellectuals.

Only after encountering such resistance did Soviet officials begin to support Azerbaijani intellectuals' calls for a transition to the Latin script. Nevertheless, efforts were made to separate and differentiate the scripts, orthographies, and terminologies of Turkic languages, with prominent scholars recruited to provide scientific justification for these changes.

In a 1925 speech marking the fifth anniversary of the University of the Peoples of the East, Stalin spoke about the eventual merging of nations and languages. He systematically reinforced these ideas in subsequent speeches. The frequent modifications of literary language norms, orthographic changes, and terminology reforms – particularly efforts to remove *syngarmony* from Turkic languages – were ultimately part of Stalin's broader agenda to create a universal language. The reduction of vowel-representing letters and the exclusion of *syngarmony* from the Uzbek literary language also aligned with this overarching objective.